

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MINTAQAVIY BO‘LIMI
XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI**

XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI

Axborotnoma OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi 223/4-son qarori bilan biologiya, qishloq xo‘jaligi, tarix, iqtisodiyot, filologiya va arxitektura fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

**2025-1/4
Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi
2006 yildan boshlab chop qilinadi**

Xiva-2025

MUNDARIJA

FILOLOGIYA FANLARI

Allaberganova R. Qadimgi turkiy xalqlardagi turli nom tanlash an'analariga ko'ra qo'yilgan antroponimlar	5
Amirqulova N. Qo'shma so'zlarning tasnifi	8
Atamurodova F.T. XX asr ingliz adabiyotida epik turkum janri tipologiyasi	11
Azamjonova X.N. Turli tizimli tillarda "ona" leksemasining voqelanishi	14
Azimkulova G.G. Expression of uzbek national values in english	17
Bahriddinov M.M. Abdulla Qahhor va Jek London hikoyalarida obraz yaratish mahorati	19
Bakturdiyeva N.B. O'tkir Hoshimov badiiy publitsistikasida ijtimoiy muammolar talqini	22
Baxtiyorova G. Asqar Mahkam ijodida olam va odamga munosabat	26
Baxtiyorova M.B. Ism qo'yish an'anasining konseptual-kognitiv asoslari	29
Dexqonova M.I. O'zbek tilidagi kasb-hunar, lavozim-amal konseptlarini voqelantiruvchi leksik birliklarining funksional-semantik va uslubiy tabaqalanishi	32
Djurayev M.K. Mashina tarjimasining qulay va noqulay tomonlari	34
Egamberdiyeva I.A. Oila diskursi gender funksionalligi tahlilida lingvopoetik yondashuv	37
Egamberdiyev J.J. Turli lug'atlarda sport terminlarining berilishi	41
Egamov S.A. Sport diskursida futbol konseptining lingvomadaniy tahlili: universal va milliy xususiyatlar	44
Eshkobilova O.Kh. So'zning an'anaviy va kognitiv tushunchadagi ma'nosi va uning tuzilishi	46
Ganiyeva D.S. O'zbek tilida unli va undosh harf va tovushlarning o'rganilishi: tadqiqiy, tahliliy taraqqiyoti	49
Hasanov H.K. Freym – konseptni hosil qilish ususli sifatida	53
Haydarov A.A., Sattorova Sh. So'z san'atkorlarining grafik vositalardan foydalanish mahorati	56
Hoshimova A.M. Ahmad Tabibiy dostonnavisligida izdoshlik masalasi	59
Ibodullayeva M.H. Ingliz tili tilshunosligida ba'zi diniy leksikalarning tadqiqi	62
Isayeva G.F. O'zbek tilidagi rasmiy matnlar terminologiyasi	65
Ishanjanova M.S. "Boburnoma"ning fransuzcha tarjimalarida etnogidronimlarni berilishi	68
Kabulova U.S., Jaloldinov M.S. Struktur-semantik tuzilishning mohiyati	71
Kadirova D.S. Estetik idrok va estetik baholash	74
Kaxarov Q.Sh. O'zbek va nemis nikoh marosimlarining lingvokulturologik tafovutlar tahlili	78
Kaxarov Q.Sh. Etiketning ijtimoiy-psixologik va madaniy asoslari	82
Kayumova Sh.K. Stylistic features of english proverbs with hydronyms	86
Khudoynazarova D.Sh. Exploring gender roles in uzbek and english youth adult literature	88
Kipchakova S.B. Cultural narratives in translation and a comparative literature perspective	81
Kurbanova S.B. Shukrullo dramaturgiyasi	93
Latibjonov A.A. Polikomponentli qo'shma gaplar tarjimasi muammolari	97
Mamadjanova N.M. Film discourse as a linguistic phenomenon	100
Matkarimova G.A. Jahon leksikografiyasida fitonimlarning o'rni va ahamiyati	103
Maxmudov R., Kamiljanova Sh. Turkiy tillarda rang bilan bog'liq nomlarning shakllanishi	107
Mo'ydinova M. Jahon tilshunosligida urf-odatlarini ifodalovchi birliklarning leksik tadqiqi	110
Murtazayeva G.M. O'zlashmalarining qoraqalpoq kompyuter terminologiyasini boyitish usuli sifatida	113
Musaeva O. Bahodir Sobit she'riyatining lingvodidaktik jihatlari	116
Najmiddinova M.N. Expression of negative affixes in english and uzbek languages in modern linguistics	118
Narzikulova M.S. Cognitive insights into character emotions in literary works	124
Narzulloyeva D.B. Abdurauf Fitratning adabiy uslubi va badiiy yondashuvi	127
Nazarova A.R. Partav Nodiriy an'anaviy she'rlarida vazn masalasi	130

Nishonov I.A. Tilshunoslikda “gender” tushunchasi va uning nutq xulq-atvorini shakllantirishdagi roli	132
Norbotayeva G.X. Typological features of word formation in english and uzbek languages	136
Otajonova D.B. Ijtimoiy - siyosiy sohalar proyeksiyasida sud lingvistik ekspertizasi	139
Rahmonova M.R. Xizr obrazi bilan bog'liq afsonalar	142
Rahmonova A.R. Maqollar va ularning madaniy-lingvistik o'rni	145
Rasulov Z.I., Shodiyeva D.S. Media diskursining zamonaviy tilshunoslikda o'rganilishi	148
Raximberganova G. O'zbek tilida mubolag'a bobida ta'riflar	151
Raxmatullaeva U.X. Ingliz va o'zbek tillarida sukut va poza muloqotining noverbal tarkibiy qismi, uning milliy namoyon bo'lishining o'ziga xos xususiyatlari	153
Sharipova N.X. Mehmondo'stlikni ifodalovchi paremiyalarning ingliz va o'zbek tilidagi pragmatik xususiyatlarini qiyosiy talqini	156
Shermatova S.M. Said Asad To'ra yashagan davrda Xorazmdagi madaniy hayot va “Devoni asad” ning o'rganilish zarurati	158
Shodieva G.N., Dusmatov Kh.Kh. Classification of word groups in modern english	160
Sotvoldiyev M.A. Sehrli ertaklarning ilmiy o'rganilishidagi umumiy tamoyillar	164
Sultanova D.A. Oshiq Erkin asarlarida badiiy takrorning lingvopoetik tahlili	167
Tillabayeva Z.R. Shevaga xos frazeologizmlarning lug'aviy tarkibi	171
Tojiboyeva N. Ingliz va o'zbek maqollarining lingvokulturologik va semantik xususiyatlariga doir ayrim mulohazalar	177
Tursunov M.M. Mediamatnning mediadiskursdagi funktsional vazifalari	179
Ummatkulova Ch.A. Exploring the impact of podcast technology on the development of communication skills of students in foreign language learning	185
Usmonova M.Q. Ingliz tilida “qiyofa” konseptining maydon nuqtai nazaridan tadqiqi	187
Usmonova M.A. Farg'ona bayozlarining matniy xususiyatlari	190
Valieva N.D. Essential information about ancient russian literature	192
Xaliqulova M.E. Ingliz tilidagi ijtimoiy reklama matnlarining leksik-grammatik xususiyatlari	195
Xandamova F.B. Ingliz va o'zbek tillaridagi diniy turg'un birikmalarning linguamadaniy tahlili	198
Xudoyberdiyeva G.Sh. Bolalar adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari va nazariy asoslari	201
Xushmanova Sh.I. Kognitiv tilshunoslik va konseptual tuzilmalar	204
Yandashova D.Sh. Badiiy matnda “yolg'iz ayol” konseptining ifodalanishi	207
Yashnarbekova Sh., Kuldashev A. Scientific theories of english anthroponyms	209
Yuldashev D.T., Ramatova M.G. Shimoliy xorazmdagi ayrim qo'shma tarkibli godonimlar tahlili	213
Zaylobova N.T., Kenjayeva Z.T., Dilbarjonova M.A. Harbiy diskursda ijtimoiy masofa va munosabat	216
Zokirova S.M., Ibroximova X.T. Boshlang'ich sinf darsliklarida berilgan jumboqli matnlarning mazmuniy-semantik guruhlanishi	219
Авлакулов А.И., Шодиев Р.С. Концепт памяти в лингвистическом пространстве интернета и виртуального дискурса	222
Алибекова Л.Р. Роль имен прилагательных в формировании медицинской терминологии при описании клинических случаев, объектов, процессов и состояний	225
Арипова З.Дж. Араб грамматикасида масдар: хусусиятлари ва вазифалари	228
Махмудова У.У. Медиамаатн таржимасига лингвомаданият жиҳатдан ёндашув	230
Расулова М.М. Функция повтора как нарративного приема в творчестве А.Барикко	233
Рахимов Ж.И. Факторы проникновения интернациональных слов в лексический состав русского и узбекского языков	236
Тригулова Т.А. Медиаполитический дискурс Европейского Союза: функции маркеров согласия и несогласия	239
Файзуллина Н.Д. Компьютерно-игровой сленг подростков	242
Хайдарова Ш.Р. Использование фразеологизмов в медицине	245
Ювашева Ш.М. Репрезентация религиозных воззрений в «Кутадгу билиг»	248

MEDIA DISKURSINING ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA O'RGANILISHI

*Z.I. Rasulov, DS, prof., Buxoro davlat universiteti, Buxoro**ORCID ID 0000-0003-0554-1319**D.S. Shodiyeva, magistrant, Buxoro davlat universiteti, Buxoro*

Annotatsiya. Mazkur maqolada media zamonaviy dunyoda nafaqat axborot tarqatish vositasi sifatida, balki ijtimoiy fikrlarni shakllantirish, hokimiyatni mustahkamlash va ideologiyalarni targ'ib qilishda asosiy o'rin tutishi o'rganilgan. Mono-sentrik va poli-sentrik yondashuvlar, diktum va modus tushunchalari, shuningdek, tanqidiy diskurs tahlili, multimodal tahlil kabi zamonaviy metodlar yordamida media diskursining lingvistik va semantik xususiyatlari tahlil qilingan. Ushbu maqola raqamli platformalar va ijtimoiy tarmoqlardagi media diskursni o'rganishning ahamiyatini va uning kelajak istiqbollari yoritadi.

Kalit so'zlar: media diskurs, zamonaviy tilshunoslik, axborot tahlili, mono-sentrik, poli-sentrik, diktum va modus, tanqidiy diskurs tahlili, multimodal tahlil, korpus lingvistikasi, raqamli platformalar, ijtimoiy tarmoqlar, lingvistik manipulyatsiya, ideologik ta'sir, Ommaviy axborot vositalari (OAV), semantik tahlil.

Аннотация. Данная статья посвящена изучению медиадискурса в рамках современной лингвистики. Медиа в современном мире играют ключевую роль не только как средство распространения информации, но и как инструмент формирования общественного мнения, укрепления власти и продвижения идеологий. С использованием моноцентрических и полицентрических подходов, понятий диктум и модус, а также современных методов, таких как критический анализ дискурса, мультимодальный анализ и корпусная лингвистика, анализируются лингвистические и семантические особенности медиадискурса. Статья освещает важность изучения медиадискурса в цифровых платформах и социальных сетях, а также перспективы дальнейших исследований в этой области.

Ключевые слова: медиадискурс, современная лингвистика, анализ информации, моноцентрический, полицентрический, диктум и модус, критический анализ дискурса, мультимодальный анализ, корпусная лингвистика, цифровые платформы, социальные сети, лингвистическая манипуляция, идеологическое воздействие, средства массовой информации (СМИ), семантический анализ.

Abstract. This article is dedicated to the study of media discourse within the framework of modern linguistics. In today's world, media plays a crucial role not only as a means of disseminating information but also as a tool for shaping public opinion, reinforcing power structures, and promoting ideologies. Using mono-centric and poly-centric approaches, the concepts of dictum and modus, and modern methods such as critical discourse analysis, multimodal analysis, and corpus linguistics, the linguistic and semantic features of media discourse are analyzed. The article highlights the significance of studying media discourse in digital platforms and social network media discourse, modern linguistics, information analysis, mono-centric, poly-centric, dictum and modus, critical discourse analysis (CDA), multimodal analysis, corpus linguistics, digital platforms, social networks, linguistic manipulation, ideological influence, mass media, semantic analysis, as well as its future prospects.

Key words: media discourse, modern linguistics, information analysis, mono-centric, poly-centric, dictum and modus, critical discourse analysis (CDA), multimodal analysis, corpus linguistics, digital platforms, social networks, linguistic manipulation, ideological influence, mass media, semantic analysis.

Media diskurs zamonaviy tilshunoslikda eng muhim va dinamik tadqiqot sohalaridan biri bo'lib, u tilning ijtimoiy, siyosiy va madaniy jarayonlarda qanday ishlatilishini o'rganishga qaratilgan. Media, ayniqsa raqamli platformalar, nafaqat axborot tarqatish vositasi, balki ijtimoiy fikrlarni shakllantirish va hokimiyatni mustahkamlash vositasi sifatida ham ishlatilmoqda. Bugungi

kunda tanqidiy diskurs tahlili, multimodal tahlil va korpus lingvistikasi kabi yondashuvlar media diskursining yashirin va ko'rinadigan xususiyatlarini o'rganish uchun keng qo'llanilmoqda.

Taniqli tilshunos olim Teun van Dijkning ta'kidlashicha, media diskurs ijtimoiy normalarni mustahkamlash va stereotiplarni tarqatish vositasi sifatida ishlatiladi [9]. U media matnlarida ideologik manipulyatsiyaning qanday amalga oshirilishini o'rganish uchun ijtimoiy-kognitiv modelni taklif qiladi. Ushbu yondashuvga ko'ra, media matnlarida hokimiyatni qo'llab-quvvatlovchi va muqobil fikrlarni bostiruvchi lingvistik vositalar qo'llaniladi.

Ingliz tilshunosi Norman Fairclough esa media diskursini tahlil qilishda uch darajali yondashuvni taklif qiladi: matn tahlili, ijtimoiy amaliyot va madaniy kontekst [3] Unga ko'ra, media matnlari nafaqat ma'lumot yetkazadi, balki ijtimoiy-madaniy kontekst orqali hukumat siyosatini mustahkamlaydi.

Bugungi media diskursini o'rganishda multimodal tahlil ham muhim rol o'ynaydi. Germaniyalik tilshunos va pedagog Gunther Kress va niderlandiyalik tilshunos Theo van Leeuwen tasvirlar, ranglar va ovozlarning media matnlarida qanday semantik ahamiyatga ega ekanligini o'rganib, lingvistik va semiotik elementlarni birgalikda tahlil qilish metodikasini ishlab chiqdilar [7]. Masalan, reklamalarda ishlatiladigan tasvirlar va shiorlar iste'molchilarning emotsional javobini shakllantirishda katta rol o'ynaydi. Bundan tashqari, media diskursini o'rganishda mono-sentrik va poli-sentrik talqinlar alohida ahamiyatga ega. Monosentrik talqin bu media diskursida barcha axborot bitta asosiy markazdan (hokimiyat, davlat yoki asosiy manba) kelib chiqadi va shu markazning qarashlariga mos tarzda taqdim etiladi.

Markazlashganlik: Media bir nuqtai nazarni (yagona ideologiya yoki hukumat siyosati) tarqatadi.

Xabarlarining mazmuni va talqini deyarli o'zgarmaydi va axborot oqimining bir markaz tomonidan boshqariladi. Ko'pincha propaganda yoki ijtimoiy normalar, qadriyatlar, madaniy me'yorlarni shakllantirish va targ'ib qilishda ishlatiladi.

Avtoritar davlatlarda mediada ko'pincha davlat tomonidan boshqariladigan telekanallar va gazetalarda faqat hukumat nuqtai nazari aks ettiriladi. Masalan, "Davlat siyosati xalq manfaatlariga mos" kabi xabarlar.

Urush davridagi propagandani o'z ichiga olgan xabarlar faqat urushda ishtirok etayotgan davlat pozitsiyasini qo'llab-quvvatlaydi. Bunday hollarda axborot iste'molchilari yagona nuqtai nazarni qabul qilishga majbur bo'ladi. Shu asnoda cheklangan tafakkur, mustaqil fikrlashning pasayishi sodir bo'lishi mumkin.

Polisentrlik talqin bu media diskursida turli manbalar va nuqtai nazarlar orqali axborot tarqatishni anglatadi. Bu uslubda bitta markazdan emas, balki bir nechta axborot markazlaridan foydalaniladi. Axborot iste'molchilari mustaqil tanlov qilish uchun bir nechta nuqtai nazardan bahramand bo'ladi.

Demokratik jamiyatdagi mediada xususiy telekanallar, mustaqil gazetalar va bloglarda har xil fikrlar beriladi. Masalan, bir xabarni davlat telekanali bir xil talqinda bersa, xususiy kanallar boshqa yondashuvlarni qo'llab-quvvatlashi mumkin. Ijtimoiy tarmoqlar uchun ham har bir foydalanuvchi o'z fikrini bildirish imkoniga ega. Shu sababli, diskurs polisentrlikka moyil bo'ladi. O'quvchi yoki tomoshabin o'z nuqtai nazarini shakllantirish uchun turli fikrlardan foydalanadi.

Qisqa qilib aytganda mono-sentrik talqin [2] media vositalarida hokimiyatni va ma'lum bir madaniy g'oyalarni markazlashtirishga qaratilgan talqinni anglatadi. Bu yondashuvga ko'ra, axborot asosan bitta dominant nuqtai nazar yoki institutsional manbadan uzatiladi. Masalan, davlat nazoratidagi ommaviy axborot vositalarida mono-sentrik keng tarqalgan bo'lib, xabarlar ko'pincha hukumat yoki hukmron elitaning ideologik pozitsiyasini aks ettiradi. Mono-sentrik talqin media vositalarida tanqidiy fikr yoki muqobil nuqtai nazarlarni cheklash orqali hokimiyatni mustahkamlashga xizmat qiladi. Poli-sentrik talqin esa ko'p manbali va bir necha rakursdan axborot uzatishni anglatadi. Ushbu talqin raqamli media platformalarida keng tarqalgan bo'lib, ijtimoiy tarmoqlarda har bir foydalanuvchi o'z fikrini erkin ifoda eta oladi. Poli-sentrik talqin axborotning xilma-xilligini oshiradi va ijtimoiy muammolarni turli jihatlari bilan ko'rib chiqishga imkon beradi. Masalan, "Twitter", "Facebook" va "Telegram" kabi platformalarda ijtimoiy harakatlar poli-sentrik

tahlilni aks ettiradi, chunki har bir ishtirokchi o'z tajribasi yoki dunyoqarashiga asoslangan fikrni bildiradi.

Mono-sentrik va poli-sentrik talqinlar o'rtasidagi asosiy farq axborot oqimining nazorati va xilma-xillik darajasidir. Mono-sentrik model ijtimoiy nazorat va ideologik barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilsa, poli-sentrik model ijtimoiy erkinlik va fikrlar xilma-xilligini qo'llab-quvvatlaydi.

Korpus lingvistikasi yordamida mono-sentrik va poli-sentrik talqinlarda ishlatiladigan lingvistik vositalarni tahlil qilish mumkin. Masalan, mono-sentrik diskurslarda "majburiyat", "xavfsizlik", yoki "barqarorlik" kabi so'zlar tez-tez uchraydi, chunki ular hukumat siyosati va ayrim madaniy qadriyatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi [11] Poli-sentrik diskurslarda esa "erkinlik", "fikrlar xilma-xilligi" va "ijtimoiy adolat" kabi so'zlar ko'proq ishlatiladi, bu esa muqobil nuqtai nazarlarning ifodalanishini aks ettiradi.

Diktum va modus tushunchalari [9] bu talqinlarda ham muhim rol o'ynaydi. Mono-sentrik diskursda diktum literal fakti bildirsa, modus orqali xavfsizlik yoki tartibga bo'lgan ehtiyoj ta'kidlanadi. Poli-sentrik diskursda esa modus ko'proq tanqidiy fikrlarni yoki muqobil qarashlarni qo'llab-quvvatlash uchun ishlatiladi [10].

Diktumga quyidagicha ta'rif berishimiz mumkin. Diktum – bu xabarning asosiy mazmuni yoki faktik qismi. U gapning obyektiv axborot jihatini ifodalaydi. Uning media diskursidagi vazifasi: Yangilik yoki axborotning aniq, ishonchli va obyektiv qismini belgilaydi. Tomoshabin yoki o'quvchiga berilayotgan axborotning mazmuniy o'zagini tashkil etadi.

Masalan, yangiliklarda: "Bugun mamlakatda Prezident nutq so'zladi" – bu diktumdur, chunki bu faktik axborotni ifodalaydi.

Modus – bu xabarning subyektiv jihatini, ya'ni muallifning munosabati, hissiyoti yoki bahosi. Uning vazifasi matnni manipulyatsion yoki ma'lumotga baho beruvchi xarakterga ega qiladi. Shu bilan birga auditoriyani qiziqitirish, e'tiborini tortish yoki yo'naltirish uchun ishlatiladi.

Masalan, yangiliklarda: "Prezident nutqi o'ta ta'sirli va kelajakni porloq qiladi" – bu modusdir, chunki bu gap subyektiv munosabatni aks ettiradi.

Media diskursida diktum va modusning ahamiyati quyidagilar:

1. Axborotning ta'sirchanligini oshirish: Media diktum orqali obyektiv axborot beradi, modus orqali esa uni auditoriyaga ma'qulroq shaklda yetkazadi.

2. Manipulyatsiya vositasi sifatida: Modusdan foydalanish orqali media matnda yashirin manipulyatsiya usullarini qo'llashi mumkin, bu esa auditoriyaning nuqtai nazariga ta'sir qiladi.

3. Ijtimoiy va siyosiy diskursni shakllantirish: Modus jurnalistning shaxsiy fikri yoki qarashlarini diskursga kiritib, ma'lum bir ijtimoiy yoki siyosiy ma'no yuklaydi.

4. Auditoriya e'tiborini jalb qilish: Modus matnni emotsionalroq va qiziqarliroq qilishi mumkin.

Bularga misol sifatida quyidagicha misol keltirishimiz mumkin

Diktum: "Maktablarda yangi ta'lim tizimi joriy qilindi."

Modus: "Maktablarda joriy qilingan yangi tizim ta'limni butkul isloh qiladigan innovatsion yondashuvdir."

Xulosa

Media diskurs zamonaviy tilshunoslikda nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy, madaniy va siyosiy jarayonlarni tahlil qilish uchun muhim vosita sifatida shakllangan. Media nutqi jamiyatda hokimiyat, ideologiya va ijtimoiy tenglikni ifodalash hamda ularni targ'ib qilishning samarali vositasi bo'lib xizmat qiladi. Bugungi kunda mono-sentrik va poli-sentrik yondashuvlar media diskursining turli yo'nalishlarini ochib beradi: birinchisi axborotni nazorat qilish va hokimiyatni markazlashtirishga qaratilgan bo'lsa, ikkinchisi fikrlar xilma-xilligi va muqobil qarashlarni targ'ib qiladi.

Zamonaviy media raqamli platformalar orqali kommunikatsiya qilishning yangi usullarini kashf etdi. "Twitter", "Facebook", "Instagram" va boshqa ijtimoiy tarmoqlar poli-sentrik yondashuvning amaliy namunasi bo'lib, u erda har bir foydalanuvchi o'z ovozi eshittira oladi. Ammo bu platformalar "fake news" va manipulyatsion diskurslarning tarqalishi uchun ham imkoniyat yaratadi, bu esa tanqidiy diskurs tahlilining dolzarbligini oshiradi.

Diktum va modus tushunchalari, korpus lingvistikasi, multimodal tahlil va tanqidiy diskurs tahlili kabi yondashuvlar media matnlaridagi yashirin ma'nolarni aniqlash uchun zamonaviy vositalar

sifatida xizmat qiladi. Teun van Dijk, Norman Fairclough, Gunther Kress va boshqa tadqiqotchilarning ishlari ushbu sohada tadqiqotlarni rivojlantirishda katta hissa qo'shdi. Kelajakda sun'iy intellekt va katta hajmdagi ma'lumotlar yordamida media diskursini yanada chuqurroq tahlil qilish imkoniyati ochiladi. Bunday yondashuvlar nafaqat tilni, balki uning ijtimoiy va madaniy ta'sirini chuqurroq tushunish uchun imkoniyat yaratadi. Media diskursni o'rganish ijtimoiy tenglikni targ'ib qilish va manipulyatsion axborot oqimlariga qarshi kurashda asosiy vosita bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bell, A., & Garrett, P. (1998). *Approaches to Media Discourse*. Blackwell.
2. Chomsky, N. (2002). *Media Control: The Spectacular Achievements of Propaganda*. Seven Stories Press.
3. Fairclough, N. (2003). *Analyzing Discourse: Textual Analysis for Social Research*. Routledge.
4. Foucault, M. (1980). *Power/Knowledge: Selected Interviews and Other Writings*. Pantheon.
5. Gee, J. P. (2014). *An Introduction to Discourse Analysis: Theory and Method*. Routledge.
6. Halliday, M. A. K., & Matthiessen, C. (2014). *Halliday's Introduction to Functional Grammar*. Routledge.
7. Kress, G., & van Leeuwen, T. (2001). *Multimodal Discourse: The Modes and Media of Contemporary Communication*. Arnold.
8. Scollon, R., & Scollon, S. W. (2003). *Discourses in Place: Language in the Material World*. Routledge.
9. Van Dijk, T. A. (2008). *Discourse and Power*. Palgrave Macmillan.
10. Wodak, R., & Meyer, M. (2009). *Methods of Critical Discourse Analysis*. Sage.
11. Zappavigna, M. (2011).

UO'K 811.512.133

O'ZBEK TILIDA MUBOLAG'A BOBIDA TA'RIFLAR

G.Raximberganova, magistrant, Urganch davlat universiteti, Urganch

Annotatsiya. Ushbu maqolada mubolag'a bobida ta'riflar berilgan. Bir nechta ilmiy adabiyotlarga asoslanib mubolag'aning umumiy va xususiy jihatlari izohlangan. Mubolag'aning turlari va uning tilshunoslikda o'rganilishi keng tasvirlangan. Mubolag'aning hissiy-ekspressiv jihatlari alohida urg'u berilganligi maqolaning uzvini tashkil etadi.

Kalit so'zlar: mubolag'a, stilistika, tilshunoslik, leksik-semantika, frazeologizm, pragmatik mubolag'a

Аннотация. В этой статье приведены определения преувеличения. Общие и специфические аспекты преувеличения объясняются на основе нескольких научных литератур. Широко описаны виды преувеличения и его изучение в лингвистике. Акцент на эмоционально-экспрессивной стороне преувеличения составляет суть статьи.

Ключевые слова: преувеличение, стилистика, лингвистика, лексико-семантика, фразеологизм, прагматическое преувеличение.

Abstract. Three articles provide definitions in the section on exaggeration. Several scientific literatures provide general and well-founded creative explanations of exaggeration. The types of exaggeration and its study in linguistics are widely described. The article focuses on the emotional-expressive interest of exaggeration.

Key words: exaggeration, stylistics, linguistics, lexical-semantics, phraseology, pragmatic exaggeration

O'zbek tilida mubolag'a — bu narsa yoki hodisani haqiqatan ancha kattaroq yoki kichikroq, ba'zan esa hatto imkonsiz darajada bo'lishi mumkin deb ta'riflash san'atidir. Mubolag'a ko'pincha she'riyatda yoki adabiyotda, shuningdek, kundalik nutqda qo'llaniladi. Bu stilistik vosita ko'pincha his-tuyg'ularni kuchaytirish, tasvirni jonlantirish yoki o'quvchini hayratga solish uchun ishlatiladi. Mubolag'a orqali yaratgan ta'riflar quyidagi shakllarda bo'lishi mumkin [1]:

1. Haddan tashqari kattalik yoki kichiklik: Uning yelkalari tog' kabi keng. Bu kitob dunyoning eng qimmatbaho narsasidan ham qimmat.
2. Haddan tashqari tezlik yoki kechikish: U ko'rinmas tezlikda yugurdi. Uning fikrlari mo'jizaviy tezlikda shakllanadi.
3. Haddan tashqari kuch: Uning ovozi qudratli daryo kabi toshib chiqadi. Dunyoni o'z qo'lida ushlab turadigan kishi.